

QISHLOQ XO‘JALIGI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA AKT VA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Mavlon Saydullayevich O‘tayev

Guliston davlat universiteti qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi

Umrzoq Lapasovich G‘oziyev

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Go‘zal Faxriddin qizi Qo‘chqorova

Guliston davlat universiteti Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ta’lim yo‘nalishi talabasi

Jahona Botir qizi Saidqulova

Guliston davlat universiteti Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish ta’lim yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida AKT ning o‘rni, undagi mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyalari, o‘qituvchi, talaba, kompyuter, AKT, nazariy, multimedia, pedagogik, tajriba, dars, metodika.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish, ekinlar hosildorligini oshirish, shu bilan birgalikda oziq-ovqat muammosini hal qilish va eksport salohiyatini oshirishda zamonaviy AKT texnologiyalardan foydalanish kerak ekanligini anglatadi. Ilgarilari qishloq xo‘jaligida kam mablag‘ sarflab aholining bandligini ta’minlab berish asosiy vazifa sifatida qaralardi. Ammo bu bugungi kun talablariga mos kelmaydi, endilikda, asosiy maqsad qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirib, kam mehnatli tizimga o‘tkazishdir. Bunda zamonaviy texnologiyalar, innovatsiya, fan, AKT tizimlarini qo‘llash, ya’ni boshqa fanlardagi yutuqlarni qishloq xo‘jaligiga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hammamiz yaxshi bilamiz, global iqlim o‘zgarib ketmoqda, yangi kasalliklar, zararkundalar paydo bo‘lmoqda. Hasharotlar tezroq ekinlarga hujum qilishi oqibatida hosilni yo‘qotib qo‘yish kabi katta muammolarga duch kelinmoqda, bu muammoni hal etishda ham AKT qishloq xo‘jaligiga keng joriy qilish yaxshi samara berishi mumkin. Xususan, jahon tajribasidan kelib chiqilsa, Daniyada dehqonlarning kompyuter

texnologiyalaridan foydalanishi 80 foizni, Finlandiyada 70 foizni tashkil etadi. Buyuk Britaniyada 75 foiz, Niderlandiyada 50 foizdan yuqori.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati, axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlanish va takomillashuvining zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligi sohasida axborot ta'minotining jadallashuvi, tezkor vaziyatni tavsiflovchi, ishonchli ma'lumotlarni muntazam yig'ib borilishi, uning o'z vaqtida va sifatli tahlil qilinishi hozirgi sharoitda muhim shartlaridan bir hisoblanadi. Axborot jarayonlarini avtomatlashtirish kompyuter texnikasini joriy etishga, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uning asosida ma'lumotlarni berish avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratishga bevosita bog'liqdir. Qishloq xo'jaligi sohasida axborot ta'minotini jadallashtirish masalasini muvaffaqiyatli hal etish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliy ko'nikmalariga ega kadrlar tayyorlash talab etiladi. Yuksak axborot madaniyati faqat chuqur maxsus bilimlar orqali ta'minlanadi. Zamonaviy mutaxassisni malakasi shu bilan belgilanadiki, u shaxsiy kompyuter ishlashining asosiy tamoyili va qurilmalarini tushunishi, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashning, jumladan telekommunikatsiya kompyuter tarmog'ining zamonaviy tamoyillarini bilishi zarur.

Boshqaruv axborotlarining kompyuterda matn protsessorlari va grafik muharrirlar yordamida qayta ishlanishi elektron hujjatlar tayyorlashga, ularni saqlash va kompyuter tarmoqlari orqali uzatishga ketgan mehnat harajatini qisqartirib, mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli har bir xodim uchun matnlar, rasmlar va jadvallarni matn muxarrirlari yordamida qayta ishlash imkoniyatlari va ulardan foydalanish ko'nikmalariga oid bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi sohasida axborot tizimlaridan foydalanish esa vaqtni imkon qadar kam sarflashga, mavjud ekin maydonlarga ekinni ekish, uni o'g'itlash, sug'orish, kasallik, zararkunanda va begona o'tlardan o'z vaqtida himoya qilishga olib keladi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalardan qishloq xo'jaligining amaliy tajribalaridagina emas, balki shu soha xodimlarini tayyorlashda AKT va multimetia tizimlaridan foydalanish talabalarni yetuk mutaxassislar bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimizning 2022–yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60 sonli farmonida Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish va Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish to'g'risida aniq chora–tadbirlarni belgilab berdi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda kadrlar tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalardan keng foydalanish ko'rsatib o'tilgan.

Ta'lim texnologiyalarining rang-barangligi, uzluksiz ta'limning barcha turlariga tajriba-sinov ishlarining keng yoyilishi, yuqori malakali, ijodiy ilmiy-pedagogik tafakkurga ega bo'lgan novator o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni zarurat darajasiga ko'tardi. O'qituvchining variativ ta'lim amaliyotining ilg'or tajribalarini o'zlashtirish va ommalashtirish qobiliyati, uning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bunday tayyorgarlikning huquqiy, nazariy asoslarini «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga qaratilgan Davlat dasturlari, Davlat Ta'lim Standartlari tashkil etadi va o'qituvchiga o'z-o'zini rivojlantirish, o'zligini namoyon qilishga imkoniyat beradi. Bu o'z navbatida, pedagoglar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchining ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligini innovatsion faoliyatga yo'naltirish, uni pedagogik yangiliklarni qabul qilish, baholash va ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida yangilikni to'g'ri va samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirish talabini keltirib chiqardi. Talabalariga ta'lim berish jarayonida multimedia tizimni qo'llash orqali amaldagi o'z pedagogik faoliyatini anglash, yanada yuqori natijalarga erishish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonini o'zgartirish va rivojlantirish, yangi bilim, boshqa bir sifatdagi pedagogik tajribaga ega bo'lishdagi jarayon tushuniladi. Ta'lim berish jarayonida multimedia tizimni qo'llash doirasida ta'lim oluvchilarni tushunish, unga ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirishga bo'lgan yangicha falsafiy-pedagogik, psixologik-pedagogik yondashuvlar; ta'lim mazmuni va metodlarini qo'llashning yangi kontseptual pedagogik g'oyalari; talabaning faoliyati va hayotini tashkil etishning yangi shakllari hamda pedagoglarning boshqarish va o'z-o'zini boshqarish ota-onalar va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siridagi faoliyati amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan holatlar o'qituvchining ta'lim berish jarayonida multimedia tizimni qo'llash orqali innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorligini kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim sifat darajasi deb qarash, innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash orqali bunday tayyorgarlikni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining har biri ma'lum texnik, dasturiy va boshqa ta'minotlarga bog'liq. Multimedia vositalari asosida talabalarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia-bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, mant, grafika va animatsiya (obyektlarining fazodagi harakati) effektlari asosida o'quv materiallarini talabalarga etkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Multimedia vositalari asosida talabalarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

A) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

B) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

V) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash, imkoniyatiga erishish;

G) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan talabalarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi. Bilimlarni chuqurlashtirishda, o'qitish muddatini qisqartirishda va bir o'qituvchiga tinglovchilar sonini oshirishga imkon beruvchi kompyuterli dars beruvchi multimedia tizimlar alohida o'rin egallaydi. Kompyuterli dars berish tizimlari axborot izchil ravishda taqdim etiladigan videokassetadagi kurslarga qiyoslaganda kuchli tarmoq imkoniyatlariga ega va tinglovchilarni qiziqtirgan mavzuga to'g'ridan-to'g'ri ulanishga imkon beradi. Kurs modul prinsipi bo'yicha qurilgan, har bir modul u yoki bu hayotiy vaziyatga muvofiq keladi. Ko'rib chiqilayotgan holatlar va ularga muvofiq keluvchi hatti-harakatlar uchun tegishli so'z, tushuncha, jumla va gaplar kiritiladi. Shunday qilib, tinglovchilar o'z lug'at boyligini to'ldiradi, grammatika va sintaksis qoidalarini o'rganadi. Kompyuter dasturi yordamida o'qitish, og'zaki nutqni tinglash va talaffuzni nazorat etish uchun videokassetadan va audiokassetadan, shuningdek, grammatika qoidalari berilgan ikki o'quv qo'llanmasidan foydalanilgan holda to'ldiriladi. O'z-o'zini nazorat qilishning bunday usuli o'qitish jarayoni samaradorligini oshiradi.

Hozirda nafaqat qishloq xo'jaligi qolaversa barcha soha mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanib darslarni tashkil etish va o'tqazish talaba yoshlar ongiga tez va ishonchli, jonli sur'atlar bilan eshitadi. Misol uchun Himoyalangan yer sabzavotchiligi fanidan— Issiqxonalarda karamdosh sabzavotlar ko'chatlarini etishtirish mavzusi bo'lsin. O'qituvchi kompyuter tarmoqlari proektor orqali talabalarga mavzuni slaydlar bilan tushuntirib uni bevosita ko'rsatadi, sug'orishni har bir usuli qanday shaklda hamda uskina va jihozlar orqali bo'lishini ko'radi. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fanida esa o'simliklarni changini olib boshqa o'simlikka chatishtirish kabilarni bo'lajak mutaxassis jonli bajarishini ko'rib, ayniqsa u faqat eshitib o'qish bilan birga bajaradi ham, bunday noananaviy darslarda innovatsion texnologiyalarni to'g'ri yo'lga qo'yish qishloq xo'jalik mutaxassislarni tayyorlashda yana bir yutug'idir.

Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabning hamkorlikdagi faoliyati, ular quygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va talabning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan innovatsion texnologiya tanlanadi. Masalan, maqsad aniq natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, AKT va turli adabiyotlar kerak va bog'liqdir. Shu vaqtgacha ananaviy ta'limda yoki talabalarni faqat bilimlarni egallashga kelingan bo'lsa, hozirda davr talablariga ijodiy yondoshuvni, izlanivchanlikni, egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga va xulosalarni chiqarishga imkoniyat kerak bo'lsa talablarni ham keltirib chiqarishga noananaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali jalb etilmoqda. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarning o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari AKT interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati hamma soha mutaxassislarini tayyorlashda asosiy, keng qamrovli bo'lgan qishloq xo'jalik mutaxassislarini tarbiyalashda o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik innovatsion texnologiyalar qo'llaniladigan darslarning barchasi ham ta'lim oluvchilarni chuqur bilim olishlari va talab darajasida ko'nikmaga ega bo'lishlariga qaratilgan.

Qishloq xo'jaligi mutxassislarini tayyorlashda AKT va innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda talaba, talaba faoliyatiga yangilik kiritish hisoblanadi va buning uchun eng avvalo interfaol uslublardan foydalanib amalga oshiriladi. AKT qishloq xo'jalik sohasida bo'layotgan yangiliklar, qonunlar va farmonlar O'zbekiston agrar sektorini rivojlantiruvchi mutaxassislar uchun istiqbolli tayanch bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Qishloq xo'jaligi fanlarini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar " moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017

2. Zuev V.I., Qodirxo'jaev O.K., Adilov M.M, Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. 2009 y. (darslik).

3. A.A. Abduqodirov, A.X. Pardaev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. -T. Fan, 2009.